
BOZOR RASTALARIDAGI NARX-NAVO NAZORATDA

Yangi yil bayramida Qo'shtepaliklarning bayram dasturxonini to'kin bo'lishini ta'minlash maqsadida, tumandagi "Dehqon bozori"da oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdo-yarmarkalari tashkil etildi.



Kuni kecha tuman hokimi I.Novikov va sektor rahbarlari “Dehqon bozori”da bo’lib, bozor rastalaridagi narx-navo va sotuvchi-xaridorlarga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar.



Tuman hokimi tomonidan mutasaddilarga bozorda narx-navoning sun'iy ravishda oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik va uni oldini olish bo'yicha kerakli ko'rsatmalar berildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2020-12-28 08:57:41